



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

MAVZU; ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIMINING ASOSIY SHAKLLARI.DARS VA KORREKSION MASHG'ULOTLAR

Akbarova Oydinoy

Nizomiy nomidagi TDPU ning surdopedagogika
yo'nalishi 3 – bosqich 304 – guruh talabasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zaif eshituvchi bolalar ta'laming asosiy shakllari tahlil qilinadi. Xususan, dars va korreksion mashg'lotlarning mazmuni, uslubiy yondashuvlari hamda ularning eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga maxsus ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar va individual yondashuvlar muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish, zaif eshituvchi bolalar maktabida o'quv predmetlaridan tashqari qo'shimcha korreksion fanlarni o'qitish.

Аннотация:

В данной статье анализируются основные формы обучения детей с нарушениями слуха. В частности, рассматриваются содержание уроков и коррекционных занятий, методические подходы, а также их влияние на развитие детей с ограниченными возможностями слуха. При этом подчёркивается важность инновационных методов и индивидуальных подходов, применяемых в процессе специального обучения.

Ключевые слова: развитие слухового восприятия у детей с нарушением слуха, преподавание дополнительных коррекционных дисциплин в школе для слабослышащих детей помимо учебных предметов.

Annotation:

This article analyzes the main forms of education for children with hearing impairments. In particular, it examines the content of lessons and correctional



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

activities, methodological approaches, and their impact on the development of children with hearing limitations. At the same time, the importance of innovative methods and individual approaches used in the special education process is emphasized.

Keywords: Development of auditory perception in children with hearing impairments, teaching additional correctional subjects in a school for hard-of-hearing children alongside academic subjects.

Zaif eshituvchi bolalar ta'limi maxsus pedagogika (surdopedagogika) sohasiga kiradi va ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan turli ta'lim shakllarini o'z ichiga oladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Maxsus (korrektiv) maktablar – zaif eshituvchi bolalar uchun mo'ljallangan maxsus maktablar bo'lib, ular o'quv dasturlarini eshitish qobiliyati cheklangan bolalar ehtiyojlariga moslashtiradi. Bu maktablarda maxsus dars usullari, jumladan, vizual o'qitish va labdan o'qish usullari qo'llaniladi.
2. Inklyuziv ta'lim – zaif eshituvchi bolalar oddiy umumiyligi ta'lim maktablarida sog'lom eshituvchi tengdoshlari bilan birga o'qiydi. Bunday ta'limda maxsus surdopedagoglar, eshitish apparatlari va boshqa yordamchi vositalar qo'llanadi.
3. Individual ta'lim – ba'zi hollarda bolalarning ehtiyojlariga qarab ularga yakka tartibdagi darslar tashkil etiladi. Bu uyda yoki maxsus muassasalarda bo'lishi mumkin.
4. Masofaviy ta'lim – zamonaviy texnologiyalar yordamida zaif eshituvchi bolalar onlayn ta'lim olishlari mumkin. Maxsus subtitrlar, ishora tili tarjimonlari yoki boshqa texnologik yordamchi vositalar qo'llanadi.
5. Reabilitatsiya markazlarida o'qitish – ba'zi hollarda bolalar eshitish qobiliyatini yaxshilash yoki moslashuv jarayonidan o'tish uchun maxsus reabilitatsiya markazlarida ta'lim oladilar. Bu yerda logoped va surdopedagoglar yordamida nutq va eshitish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Har bir bola uchun eng samarali ta'lim shakli uning eshitish darajasi, individual ehtiyojlarini va rivojlanish xususiyatlariga qarab tanlanadi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

Zaif eshituvchi bolalar maktablarida umumta'lim maktablari uchun o'quv rejada mavjud barcha o'quv fanlari o'qitiladi. Umumta'lim o'quv predmetlaridan tashqari qo'shimcha korreksion fanlar ham o'tiladi:

- a) "Ona tili" o'quv fani uchun ajratilgan soatlar tarkibida "Nutq o'stirish", "nutqiy muloqot" kabi darslar o'quvchilarni og'zaki va yozma ravishda nutqiy muhitga mos holda muloqot qilishga tayyorlaydi.
- b) "Texnologiya" fani uchun soatlar miqdori sog'lom bolalarga nisbatan ko'proq ajratiladi va boshlang'ich sinflarda "Predmetli amaliy ta'lim" deb nomlanadi. Bu fan bo'yicha darslar korreksion yondashuvlarga asoslangan holda olib boriladi.
- c) "Eshitish idrokini o'stirish va talaffuzni shakllantirish" nomli korreksion mashg'ulotlarda mutaxassislar har bir bola bilan yakka holda ishlaydi. Bunday mashg'ulotlarda har bir bola haftasiga 20 daqiqadan ishtirok etadi. Mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda mavjud eshitish qoldig'ini rivojlantrishni ko'zda tutadi.
- d) "Jismoniy tarbiya va ritmika" darslarini ikki nafar mutaxassis olib boradi. Bu darsda bolalar musiqiy ohang asosida jismoniy harakatlarni tizimli holda bajarish orqali nutqiy va nonutqiy tovushlarni eshitib farqlashga o'rzanadi.

Zaif eshituvchi bolalardagi nuqsonlarni maxsus korreksion fanlarni o'qitish orqali korreksiyalash masalasining dolzarbligidan kelib chiqqan holda ularning nutqini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, rus olimi S.A.Zikov shunday ta'lim tizimini ishlab chiqdi, uning tadqiqotlariga ko'ra eshitishida nuqsoni bo'lган bolalarga "tayyor bilimlar"ni berish yaxshi natijaga olib kelmaydi va ularning bilish jarayonlarini rivojlantirishga ham xizmat qilmaydi. Eshitishida nuqsoni bo'lган bolalarni turli faoliyatlarida rivojlantirish o'z navbatida o'quv jarayoniga predmet – amaliy faoliyat, tasviriy faoliyat, o'quv – hisoblov faoliyatlarini kiritish bilan belgilanadi. Barcha yuqordagi faoliyatlarini o'z ichiga olgan faoliyat bu – predmetli-amaliy ta'lim (PAT) darslari hisoblanadi. Aynan shu sababdan ham eshitishida nuqsoni bo'lган bolalar maktab-internatlarida predmetli-amaliy ta'lim darslariga asosiy e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda kar va zaif eshituvchi bolalarning maxsus ta'lim muassasalarida predmetli-amaliy ta'limni o'qitishda F.Qodirova tomonidan ishlab chiqilgan dastur va darslik asosida mashg'ulotlar olib boriladi.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th March, 2025

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg‘ulotlar ularning nutqini rivojlantirish, eshitish qobiliyatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuvini oshirishga qaratilgan. Quyida bunday mashg‘ulotlarning asosiy yo‘nalishlari keltirilgan:

1. Logopedik ishlar: Bu mashg‘ulotlar nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, talaffuzni to‘g‘rilash, lug‘at boyligini oshirish va grammatik tuzilmani shakllantirishni o‘z ichiga oladi.
2. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish: Maxsus mashqlar orqali eshitish differentsiatsiyasini yaxshilash, ya’ni tovushlarni ajrata olish qobiliyatini oshirishga e’tibor qaratiladi.
3. Logoritmika: Musiqa va ritmik harakatlar orqali bolalarning nutqini va eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
4. Ota-onalar bilan hamkorlik: Bolalarning rivojlanishida ota-onalarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Ular bilan birqalikda uy sharoitida mashg‘ulotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.
5. Psixologik yordam: Bolalarning hissiy holatini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvini oshirish uchun psixologik xizmatlar ko‘rsatiladi.

Ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan korreksion mashg‘ulotlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va to’laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu mashg‘ulotlarda bolalarning umumiyligi rivojlanish xususiyatlari hisobga olinadi. Korreksion mashg‘ulotlarda har bir bola uchun individual rejalar tuziladi hamda ulardagi birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar bartaraf etiladi. Xusan, bu mashg‘ulotlarning maqsad va vazifalari quyidagicha:

- 1 – o’quvchilar rivojlanishidagi muammolar natijasida kelib chiqqan ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish, yumshatish, bilinmaydigan holatga keltirish;
- 2 – fanlarni o’zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklarni oldini olish va bartaraf etishning tegishli choralarini ko‘rish;
- 3 – o’quvchilarni samarali muloqotga o’rgatish, mustaqil faoliyatning turli shakllariga tayyorlash;
- 4 – o‘z salomatligini nazorat qilish va tiklashga o’rgatish;
- 5 – o‘z-o‘zini baholash va namoyon qilish uchun qulay sharoitlarni yaratish.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun korreksion mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish maxsus pedagogik yondashuv va individual ta’lim dasturlarini talab qiladi. Bunday mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish, nutqni shakllantirish va ularning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashishdan iborat.

Korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari

- a) individual yondashuv – har bir bola uchun uning eshitish qobiliyati darajasiga mos o‘quv rejasi ishlab chiqiladi.
- b) ko‘rish va taktil sezgilarni rivojlantirish – eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun vizual va kinestetik (qo‘l bilan his qilish) usullar muhimdir.
- c) kogopedik mashg‘ulotlar – nutqni rivojlantirish va talaffuzni to‘g‘rilash uchun logoped bilan ishslash talab qilinadi.
- d) texnik vositalardan foydalanish – eshitish moslamalari, koxlear implantlar, subtitrli videolar va maxsus dasturlar yordamida darslarni samarali tashkil etish mumkin.
- e) kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish – imo-ishora tili, labdan o‘qish va boshqa usullar yordamida bolalarning muloqotga kirishish qobiliyatini oshirish lozim.
- f) ijtimoiy moslashuv – bolalarning jamiyatga integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun psixologik xizmatlar va maxsus treninglar o‘tkazish muhimdir.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, zaif eshituvchi bolalar ta’limida dars va korreksion mashg‘ulotlar muhim ahamiyatga ega. Darslar o‘quvchilarning umumiyligi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, korreksion mashg‘ulotlar ularning eshitish va nutq qobiliyatlarini yaxshilashga mo‘ljallangan. Bu mashg‘ulotlar individual yondashuv asosida o‘tkazilib, bolalarning ehtiyojlariga moslashtiriladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U.Qodirova, U.Y.Fayziyeva, Sh.X.Kobilova “Surdopedagogika” (Chirchiq 2024).
2. Abdullaeva M., To‘xtayeva G. – Maxsus pedagogika (O‘zbekistonda maxsus ta’lim asoslari).
3. Muhaz.org – “Korreksion(maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari va tamoyillari.